



SUN'IY INTELEKTNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Azizbek Rajabov Akmaljon o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ahamiyati va qo'shgan hissasi har tomonlama tahlil qilinadi. Bu rivojlangan dunyoda, sun'iy intellekt ta'limda o'qituvchilarning ishini nisbatan yengillashtirmoqda va katta ahamiyat kasb etadi: individual yondashuv, samaradorlikni oshirish, ta'limni qiziqarli qilish va ta'limda keng imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, individual ta'lim, samaradorlik, interaktivlik, kognitiv fanlar, formativ baholash, adaptive o'qitish.

Yangi texnologiyalar va texnologik o'zgarishlar zamonaviy dunyoni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt bu bosqichning markazida turibdi. Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda dars jarayoninni avtomatlashtirishda, har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olib, maxsus o'qitish va baholash tizimini yaratishda muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston ham shunday imkoniyatlardan chetda qolmay, raqamli ta'lim va elektron platformalarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Mazkur maqolada sun'iy intellekt va ta'lim integratsiyasining mohiyati va mavjud imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan.

Ta'limda sun'iy intellekt sohasi juda keng yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan:

- Sun'iy intellekt asosida ishlovchi individual va bosqichma-bosqich o'qitish tizimlari;
- AI yordamida tadqiqotga asoslangan o'rganish;
- O'quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilish;
- O'yin asosidagi muhitlarda ishlovchi intellectual agentlar;
- O'quvchilarga yordam beruvchi chatbotlar;
- O'quvchi va repetitorni moslashtiruvchi AI tizimlari;



Bularning barchasi o'quvchilarga o'z ta'lim jarayonini nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, ta'limda sun'iy intellekt butun maktab va universitetlar miqyosidagi yondashuvlar, sinfdan tashqari mobil qurilmalar orqali o'rganish va boshqa ko'plab shakllarni ham qamrab oladi. Ta'limdagi sun'iy intellekt sohasi bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham innovatsion hisoblanadi. U sun'iy intellekt, kognitiv fanlar va pedagogika kabi sohalardan nazariyalarni oladi, shu bilan birga o'ziga xos yangi tadqiqot savollarini ham yuzga keltiradi. Masalan:

- Bilimning tabiati qanday?
- U qanday ifodalanadi?
- O'quvchiga samarali yordam berish qanday amalga oshiriladi?
- Qaysi o'qitish uslubi samaraliroq?

Ba'zi tadqiqotchilar sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yordamida "o'rganishning yashirin mexanizmlarini" ochishga harakat qiladi. Bunday katta imkoniyatlar, albatta, nafaqat o'quvchi va o'rganuvchi uchun qulay, balki o'qituvchining ham yelkasidan juda katta mas'uliyatni ozgina bo'lsa ham oladi. Natijada, AI o'qish samaradorligiga yetarli darajada hissa qo'shadi. [82-83, 1]

Bundan tashqari, talabalar bilmini aniq va jarayon davomida baholash uchun turli xil baholash usullari zarur. Formativ baholashlar o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: kundalik testlar, chiqish kartochkalari, grafik tashkilotchilar, talabalar konspektlari, rivojlanish bo'yicha birlikdan birlikka baholashlar va boshqalar. Formativ baholashning hozirgi asosiy cheklovlaridan biri – o'qituvchilar tomonidan talabalarning natijalarini baholash uchun katta vaqt sarflanishidir. Sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari esa bu muammoni hal etish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, ChatGPT-4 o'qituvchiga bir yil davomida baholanishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha savollar tuzishga yordam berishi mumkin. ChatGPT-4 tomonidan yaratilgan baholash vositalari ro'yxati ta'lim jarayonini sezilarli darajada takomillashtirish salohiyatiga ega. Biroq hozirgi kungacha tijoriy jihatdan keng foydalanish mumkin bo'lgan va maqbul narxlardagi sun'iy intellekt asosida baholash tizimlari yetarli darajada mavjud emas. Qisqa muddatli istiqbolda o'qituvchilar sun'iy intellekt yordamida kuchaytirilgan baholash mexanizmlari qanday ishlashini chuqur tushunib olishlari zarur. Sun'iy intellekt talabalar faoliyatini o'quvchilarning natijalaridagi o'xshashlik va farqlar asosida baholaydi; bunda u trening jarayonida foydalanilgan minglab yoki hatto yuz minglab boshqa holatlar bilan



taqqoslashni amalga oshiradi. Modelning murakkablik darajasi natijaning ishonchligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan holatlar soniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning barchasini yetarli darajadagi aniqlikka olib kelish uchun ko'p yillik trening va modelni o'rgatish jarayoni talab etilishi ehtimoldan holi emas. [31-35, 2]

Sun'iy intellektga asoslangan adaptiv masalaviy o'qitish texnologiyalari ta'lim jarayonida talabalarga individual yondashuvni ta'minlash, shaxsiylashtirilgan topshiriqlarni shakllantirish hamda kurs doirasida muntazam baholashni amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur maqsadga erishish uchun semester davomida o'quv jarayonini asosiy pedagogic dizayni fanlar tasnifining xususiyatlari, o'quv predmetining o'ziga xos jihatlari, talabalarning mutaxassisligi hamda ta'lim bosqichiga muvofiq ravishda ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, o'quv dasturining mazmuniy tuzilmasi tahlil qilingach, zarur mavzular sun'iy intellektga asoslangan tizimning umumiy kontekst bazasidan saralab olinadi va ularning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida tizimga integratsiya qilinadi. [124, 3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agarda sun'iy intellekt ta'lim sohasiga kuchli darajada yo'naltiriladigan bo'lsa, bu holat nafaqat o'rganuvchi uchun, balki o'qituvchilarga ham o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Ikkinchidan esa, Sun'iy intellekt o'rganuvchilar uchun ta'lim sohasini nafaqat bilimga boy, balki interaktiv qilish xususiyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wayne Holmes, Maya Bialik, Charles Fadel; "Artificial intelligence in education "
2. Center for Innovation, Design, and Digital Learning; "Artificial Intelligence: The impact of AI on education for all learners "
3. Seifedine Kadry; "Artificial Intelligence and Education shaping the future of Learning "